

## FILMDAGI FILM TARJIMASINING PRAGMATIK JIHATLARI

*Xaydarova Umida Tursunboyevna**Samarqand Davlat Chet Tillar instituti**2 kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada film tarjimasi san'atida tarjimonning izlanishlari aktyorlik mahorati, shuningdek pragmatik jihatlar muhokama etiladi. Uning o'ziga yarasha murakkab jihatlari borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** film, rejissura, ekran, tarjima ekvivalent muharrir rejissyor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish.

**KIRISH**

Har kuni televizor orqali ko'plab xorijiy hujjatli, badiiy va filmlar namoyish etilishini yaxshi bilamiz. Teleseriallarning namoyishini aytmasa ham bo'ladi. Ularni tomosha qilarkanmiz film qahramonlarining ismini yaxshi bilamiz, undagi voqealarini kuzatamiz. Qahramonlari bilan birga quvonamiz, kyununamiz, hatto ular qadrdonimizga aylanganib qolganini sezmay qolamiz. Film qahramonlarining o'zbek tilida bemalol gapirayotganini ko'ramizu lekin ularni ana shunday mahorat bilan o'zbekcha gapirtirolganlarning kadr orti mashaqqatli mehnatini esimizga ham olmaymiz. Vaholanki bitta film tarjima qilinib ekran orqali tomoshabingataqdim etilguncha o'ziga yarasha ijodiy va mashaqqatli yo'llarni bosib o'tadi.

**ASOSIY QISM**

Kino san'atining taraqqiyoti davomida filmlar almashinushi yuzaga kelarkan uning mazmun-mohiyatini tomoshabinlarga aniqroq yetkazish maqsadida maxalliy tilga tarjima qilish borasida ham izlanildi va shu izlanishlarining hosilasi sifatida dublyaj ya'ni filmning ikkinchi dubli yuzaga keldi. Filmni oddiy, jo'ngina so'zma so'z xam tarjima qilish mumkindir<sup>1</sup>. Lekin unda filmdagi voqelik, vaziyat, muhit, qahramon holati, so'zning ko'chma ma'nolari yo'qolib uning mazmun mohiyatiga zarar yetishi aniq. Masalan, bir qarashda oddiydek tuyulgan rus tilidagi "Да" so'zini o'zbek tilida bir necha ekvivalentda qo'llash mumkin. "Да"- tasdiq ma'nosida - ha, eshikdan kirishga ruxsat so'ralganda ruxsat ma'nosida - "да-да" - kiravering, ba'zan telefon go'shagini ko'targanda "да-да"- labbay eshitaman ma'nosida, ajablanganda ya'ni shunaqami, yoki shunaqa degin degin ma'nosida - "да-а", "да" kabi tarjimaqilinadi. Bordiyu shu o'rinda faqat so'zning asl holicha tarjima kilinsa qahramon dialogiga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun unga badiiy jihatdan yondashishga va so'zlarning ekvivalentlarini qo'llash o'ri nli bo'ladi. Bu esa tarjimondan o'ziga yarasha izlanish

<sup>1</sup> B. Ahmedov "Kino belgisi ostida", -T.: "Akademiya", 2015 y.

talab qiladi va mohirona qilingan tarjimani san'at darajasida baholash o'riinli bo'ladi.

Masalan rejissyor E.Ryazanovning "Ishdag'i ishq" ("Служебный роман") filmidagi lavhani esga olaylik. Uni rus tili va o'zbek tilidagi lavxaniqiyoslab tahlil qilib ko'ramiz<sup>2</sup>

Новосельцев - Ты знаешь, кого нашей мымре назначили заместителем?

Novoselsev- Bilasanmi kampirimizga kimni o'rribbosar qilibyuborishibdi?

Ольга - Нет, кого? Olga - Yo'q. Kimni?

Новосельцев - Ну, подумай Novoselsev - Top-chi.

Ольга - Не знаю Olga - Bilmadim.

Новосельцев - Ну подумай подумай, ну!

Novoselsev - Qani bir o'yab ko'r-chi, o'yla.

Ольга - Ну, не знаю, ну кого? Olga - Bilolmadim aytaqol

Новосельцев - Юрку! Novoselsev - Yurkani

Ольга - Какого Юрку? Olga - Qaysi Yurkani

Новосельцев - Ну ладно-какого! Как будто между вами ничего не было!

Novoselsev - Ol-la. Oralaringizda hech narsa bo'lmagandek qaysi deysan-a.

Ольга - Самохвалова? Olga - Samoxvalovnimi?

Новосельцев - Самохвалова! Novoselsev - Samoxvalovni

Ольга - Ну, надо же. А как он сейчас выглядит?

Olga - Qarang-a

Novoselsev - Hozir ko'rdim

Olga - Qanaqa bo'p ketibdi

Новосельцев - Ну, выглядит...Как огурчик.

Novoselsev - O'sha o'sha archilgan tuxumdek

Shu o'rinda rus tilida ishlatilgan so'zlarga e'tibor qarataylik. Rus tilidagi "мымра" so'zini personajning biografiyasidan kelib chiqqan holda "qariqiz" xam deyish mumkin edi, lekin tarjimon "kampir" so'zini ishlatgan. ishlatilgan. "Ну подумай, подумай" jumlalarining tarjimasida qaytariqlardan qochilgan holda "o'yab ko'r, top-chi" deb o'zgartirgan. "Ну, не знаю" jumlalari "Bilolmadim, aytaqol" tarjima qilingan<sup>3</sup>.

### XULOSA VA MUNOZARA

Tarjimada voqeа bozordami, oila davrasidami yoki saroydami albatta shu jixatlar inobatga olinishi shart. Chunki har bir joyning o'z leksikoni mavjud bo'lib uni bir biri bilan aralashtirib bo'lmaydi. Masalan saroydagi qahramonlar zodagonlarga xos uslubda so'zlashsa, bozordagi dialoglarning o'ziga xos tili bo'lsa o'g'rilarining suxbatida ularga mos jargonardan foydalilanadi. Oiladagi bo'ladigan suhbat uning muhiti oila a'zolarining xarakteri, o'smir va bolalarni esa yoshiga yoshi va tiliga mos ravishdagi

<sup>2</sup> Basov V. "Televizorda rejissyor". -M.: "San'at", 2018 yil

<sup>3</sup> Kler R. "Kecha kino, bugun kino". -M.: "Taraqqiyot", 2011 yil

so‘zlardan foydalaniladi. Shuni ta’kidlash lozimki, har bir millategalarinig o‘ziga xos xarakteri mavjud. Xarakterlar so‘zlashuv uslubi ham ta’sir etadi. Turk seriallarini misol qiladigan bo‘lsak. Ushbu xalq o‘z yaqin kishilariga, hatto eriga sen - deb murojaat etadi. Bu uning otasi, onasi yoki eribo‘lishi mumkin. Ko‘p jihatdan turk xalqi o‘zbek xalqiga yaqin tursada ushbu holatni izohlab berish qiyin. Tarjimon ishga kirishidan oldin filmni takror va takror ko‘rar ekan, asar mazmunini to‘g‘ri anglashga va asosiy maqsadni izchillikka qaratishi lozim. Tarjimon oldida birinchi turadigan masala bu albatta ekran imkoniyatlari bo‘lib, obraz va uning kechinmalari, ruhiy holati orqali ifodalanadi.

#### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. B. Ahmedov “Kino belgisi ostida”, -T .: “Akademiya”, 2015 y.
2. Basov V. "Televizorda rejissyor". -M.: "San'at", 2018 yil
3. Kler R. “Kecha kino, bugun kino”. -M.: "Taraqqiyot", 2011 yil
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)